



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANKLARNING FOND BOZORIDAGI FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Bo'riyev Jamshid Parda o'g'li

Markaziy bankning Qashqadaryo viloyat Bosh boshqarmasi
ORCID: 0009-0009-7645-4934
jamshid084@gmail.com

Nasirov Ramazon To'xtayevich

Markaziy bankning Qashqadaryo viloyat Bosh boshqarmasi
ORCID: 0009-0002-3652-7501
ramazon123@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada banklar va fond bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, banklarning investor sifatida fond bozori ishtirokchisi bo'lishi, shuningdek, fond bozorida kapital jalb qilish va risklarni boshqarish usullari ko'rib chiqiladi. Banklar faoliyatining fond bozoridagi o'ziga xos xususiyatlari hamda bu jarayondagi nazariy yondashuvlar batafsil o'rganiladi.

Kalit so'zlar: banklar, fond bozori, moliyaviy barqarorlik, kapital bozori, investitsiyalar, risklarni boshqarish, resurslarni diversifikatsiya qilish, bank ishtiroki.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ БАНКОВ НА ФОНДОВОМ РЫНКЕ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Буриев Жамшид Парда угли

Главное управление Центрального банка по Кашкадарьинской области
Насиров Рамазон Тохтаевич
Главное управление Центрального банка по Кашкадарьинской области

Аннотация. В статье рассматриваются взаимоотношения банков и фондового рынка, роль банков как инвесторов на фондовом рынке, а также методы привлечения капитала и управления рисками на фондовом рынке. Подробно изучены особенности деятельности банков на фондовом рынке и теоретические подходы к этому процессу.

Ключевые слова: банки, фондовый рынок, финансовая устойчивость, рынок капитала, инвестиции, управление рисками, диверсификация ресурсов, участие банка.

WAYS TO INCREASE THE ACTIVITY OF BANKS IN THE STOCK MARKET IN THE CONDITIONS OF THE DIGITAL ECONOMY

Boriyev Jamshid Parda ogli

Regional Office of the Central Bank in Kashkadarya
Nasirov Ramazon Tokhtayevich
Regional Office of the Central Bank in Kashkadarya

Abstract. The article examines the relationship between banks and the stock market, the role of banks as investors in the stock market, as well as methods of raising capital and managing risks in the stock market. The specific features of banks' activities in the stock market and theoretical approaches to this process are studied in detail.

Keywords: banks, stock market, financial stability, capital market, investments, risk management, resource diversification, bank participation.

Kirish.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bank tizimining fond bozoridagi ishtirokini yanada kengaytirishni talab qilmoqda. Moliyaviy texnologiyalar va raqamli aktivlarning ommalashishi natijasida banklarning fond bozoridagi faolligi nafaqat kapital jalb qilishning yangi mexanizmlarini yaratish, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi ham raqamli transformatsiya jarayonlarini bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Fond bozorining rivojlanishi bank sektorining investitsion imkoniyatlarini kengaytirish, likvidlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mamlakatimiz banklarining fond bozorida faol ishtirok etishi uchun huquqiy, texnologik va strategik omillarni yanada takomillashtirish talab etiladi.

Banklarning fond bozoridagi ishtirokini kuchaytirish moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish, innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va O'zbekiston sharoitiga mos strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarning fond bozoridagi faolligini oshirish yo'llari o'rganiladi hamda O'zbekiston iqtisodiy tizimi uchun samarali taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Banklarning fond bozoridagi ishtiroki global va mahalliy iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank sektorining fond bozori bilan integratsiyasi moliyaviy barqarorlik va investitsiya muhiti rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning fond bozori va bank sektori o'rtasidagi aloqadorlikka doir ilmiy izlanishlari tahlil qilib o'tamiz.

Xorijiy olimlarning tahlillaridan Bank tizimi va fond bozorining o'zaro bog'liqligini o'rgangan bir qancha olimlardan biri Frederic Mishkin (2020) – "The Economics of Money, Banking, and Financial Markets" kitobida bank tizimi va fond bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganadi. Olimning fikriga ko'ra, banklar kapital jalb qilish, investitsiyalarni moliyalashtirish va kredit resurslarini taqsimlash orqali fond bozorining samarali ishlashiga hissa qo'shadi. U moliyaviy innovatsiyalar, xususan, elektron obligatsiyalar va tokenizatsiyalangan aktivlarning bank sektoridagi o'rnini tahlil qilgan.

Ross Levine (2005) – "Finance and Growth: Theory and Evidence" tadqiqotida moliyaviy bozorlarning rivojlanishi iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Unga ko'ra, rivojlangan bank tizimi va fond bozori bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, banklarning fond bozorida faol ishtirok etishi innovatsion tadbirkorlik va texnologik taraqqiyot uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot va fond bozori transformatsiyasi bo'yicha esa Douglas Diamond va Philip Dybviglar (1983) – banklarning likvidlik ta'minoti va fond bozoriga chiqishining moliyaviy barqarorlikka ta'siri haqida tadqiqot olib borgan. Ular banklarning fond bozori orqali likvidlik xavfini kamaytirish imkoniyatlarini ko'rib chiqib, raqamli iqtisodiyotda blokcheyn va kriptoaktivlarning ushbu jarayonga ta'sirini ham o'rganishgan.

David Yermack (2018) – "Corporate Governance and Blockchain Technology" maqolasida raqamli texnologiyalarning bank sektoriga integratsiyalashuvi va fond bozori rivojiga ta'sirini o'rganadi. U banklarning tokenizatsiya va blokcheyn texnologiyalari orqali fond bozorida ishtirok etish imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Muhammad Yunus (2006) – bank tizimining innovatsion moliyaviy xizmatlar orqali fond bozoriga integratsiyalashuvini yoritgan. U xususan, mikrofinans xizmatlarining aksiyadorlik kapitali va fond bozoriga ta'sirini o'rganib, banklar uchun yangi moliyaviy modellarni ishlab chiqishni taklif qilgan.

Shu jumladan ushbu tadqiqot ishi doirasida mahalliy olimlarimiz ham birqancha ilmiy izlanishlar olib borishgan xususan O'zbekistonda fond bozori va bank sektorining rivojlanishi bo'yicha Karimov (2021) – "O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish strategiyalari" tadqiqot ishida banklarning kapital bozorida ishtirok etishining huquqiy va iqtisodiy jihatlarini o'rganadi. Uning fikriga ko'ra, O'zbekistonda banklarning fond bozori bilan integratsiyasini kengaytirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarur.

Qodirov (2020) – "Bank ishi va investitsiya siyosati" kitobida tijorat banklarining fond bozoriga chiqishining imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qiladi. U bank sektorining fond bozori orqali o'z kapital bazasini kengaytirishi moliyaviy tizim barqarorligini oshirishini ta'kidlaydi.

O'ktamova (2023) – "O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining fond bozoriga ta'siri" maqolasida bank kapitalining fond bozoridagi ishtirokiga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston banklari IPO (initial public offering) va obligatsiyalar chiqarish orqali fond bozorida ishtirokini oshirishi kerak.

Raqamli iqtisodiyot va bank sektorining o'zgarishi bilan bog'liq tadqiqotlarda mahalliy olimlarimizdan Usmonov (2022) – "Raqamli bank tizimi va uning rivojlanish istiqbollari" asarida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini modernizatsiya qilishning dolzarbligi ko'rsatib berilgan. Uning tadqiqotlari O'zbekiston bank sektorining fond bozoridagi faolligini oshirish uchun FinTech xizmatlari va elektron to'lov tizimlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Kamilova (2023) – "Tijorat banklarining aksiyadorlik kapitali va investitsiya siyosati" maqolasida banklarning fond bozoridagi faolligini oshirish mexanizmlarini o'rganib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan dasturlarni kengaytirish kerakligini ta'kidlaydi.

Tursunov (2021) – "Raqamli texnologiyalar va bank sektori" tadqiqotida blokcheyn va sun'iy intellekt asosidagi moliyaviy xizmatlarning fond bozoriga ta'siri yoritilgan. Uning fikricha, O'zbekiston banklari blokcheyn texnologiyalari orqali fond bozorida innovatsion moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishi mumkin.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlari banklarning fond bozoridagi ishtirokini oshirishda innovatsion texnologiyalar va tartibga soluvchi mexanizmlarning muhimligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, banklar raqamli iqtisodiyot sharoitida fond bozori bilan uzviy ishlashi lozim.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari esa aynan O'zbekiston sharoitiga mos strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, ular banklarning fond bozorida faol ishtirok etishining huquqiy, iqtisodiy va texnologik jihatlariga alohida e'tibor qaratishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy uslublar tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv – banklarning fond bozoridagi ishtirokini o'rganishda ularning iqtisodiy tizimdagi o'rnini, fond bozorining rivojlanishiga ta'sirini va raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilish uchun ishlatilgan. Komparativ tahlil – xorijiy va mahalliy tajribalarni solishtirish orqali O'zbekiston sharoitida banklarning fond bozoriga integratsiyasini yaxshilash bo'yicha ilg'or tajribalar aniqlangan. Ekonometrik modellashtirish – banklarning fond bozoridagi faolligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash uchun statistik ma'lumotlar asosida tahlillar olib borilgan. Statistik tahlil – O'zbekistonning fond bozori va bank sektoriga oid rasmiy statistik ma'lumotlar, Markaziy bank hisobotlari va xalqaro moliyaviy tashkilotlarning hisobotlari asosida moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Ekspert bahosi va so'rovnomasi usuli – bank sohasi mutaxassislari va moliya bozoridagi ekspertlar fikrlari o'rganilib, ular asosida banklarning fond bozorida ishtirokini oshirish bo'yicha takliflar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat tijorat banklariga depozit vositasida mablag' joylashtirish amaliyoti ham mavjud. Buni 2019 yil fevral oyida London fond birjasida 1 mlrd. AQSH dollariga teng suveren yevroobligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirilgan kelib tushgan mablag'lar milliy iqtisodiyotga yo'naltirilishi misolida ko'rishimiz mumkin.

Aynan davlat ulushi keskin yuqori bo'lgan banklarga xalqaro obligatsiyalardan kelib tushgan mablag'larning 89 foiz qiismi joylashtirilishi, aynan shu banklar uzoq muddatli resurs bazasi mustahkamlanishiga olib kelgan. Lekin sog'lom raqobat masalasida ma'lum natijaga erishilgan deya olmaymiz. Fikrimizcha suveren obligatsiyalardan tushgan mablag'lar to'g'ridan-to'g'ri muhim loyihalarga yo'naltirilishi, davlat ishtirokidagi tijorat banklarining mustaqil tarzda milliy va xalqaro fond bozoridagi faolligiga erishish lozim.

Shuningdek, tijorat banklari aksiyalariga egalik qilish, aksiyalarni sotib olish bo'yicha ayrim cheklovlar yumshatilishi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan dastlabki rozilik olish, rozilik olish amaliyotlari soddalashtirilishi, vaqt sarfi keskin qisqartirilishi lozim. Chunki ayni vaqtda amal qilayotgan jarayon ham murakkab, ham vaqt sarfi nihoyatda yuqori. Investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish to'g'risida qaror qabul qilish nisbatan tezkorlikni talab qilishi bois, bunday byurokratik amaliyotlar investorlar qiziqish doirasining pasayishiga olib keladi. Mazkur amaliyot investorlarning aynan qaysi amaliyotlari bo'yicha qo'llanilishi haqida birinchi bobda to'xtalib o'tgan edik. Aksiyadorlarning tijorat banklaridagi ustav kapitalida egalik qilishi mumkin bo'lgan eng yuqori ulush ustav asosida belgilab qo'yilishi bozor sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining moliyaviy resurslar jalb qilishiga davlat tomonidan haddan tashqari yuqori yordam ko'rsatilishi boshqa aksiyadorlar bilan munosabatlarning samarali tashkil etilishiga to'sqinlik qiladi. Bu o'z navbatida garchi bank aksiyalari listingdan o'tgan bo'lsada, aksiyalar likvidligi haddan tashqari past bo'lishiga olib keladi. Davlat tomonidan moliyaviy resurslar tijorat banki ustav kapitaliga muntazam yo'naltirilishi amalda boshqa tomondan erishilgan foydani ham davlat ishtirokida boshqarishga olib kelgan. Natijada esa minoritar aksiyadorlar manfaatlari inobatga olinmagan holda moliyaviy qarorlar qabul qilinishi kuzatiladi. Dividendlar amaliyotlari orqali investitsion jozibadorlikka e'tibor qaratilmasligi yana tizimli muammo sifatida aksiyalar ochiq joylashtirilishi amaliyotlari muvaffaqiyatini ham cheklab qo'yadi.

Aynan tijorat bankining o'zi ham ma'lum bir emitentlar qimmatli qog'ozlariga investitsiya kiritmoqchi bo'lsa, daromadlilik masalasiga ustuvor darajada e'tibor qaratishi shubhasiz. Shu nuqtai nazardan har qanday emitent kabi, tijorat banklari ham o'z qimmatli qog'ozlarini investorlarga taklif qilishda qimmatli qog'ozlari daromadlilikiga bo'lgan ishonchni namoyon eta olishi va o'z faoliyatida mazkur jihatni birlamchi omil sifatida hisobga olishi lozim. Yana shuni ham qayd etib o'tishimiz lozimki, passiv daromad hisoblangan dividend va foizlarning bozor daromadlilikiga mutanosibliigi hamda investorlar manfaatlarini qanoatlantirishi aktiv daromad hisoblangan qimmatli qog'ozlar kurslaridan daromad olish imkoniyatlarini ham yuzaga keltiradi.

Tijorat banklari faoliyatida muhim asos vazifasini bajaruvchi aksiyalar muomalasiga e'tibor qaratsak, daromadlilik imtiyozli aksiyalar bo'yicha nisbatan barqaror bo'lsada, oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar keskin past ekanligiga tahlil qilgan banklarimiz misolida amin bo'ldik. Oddiy aksiyalar bo'yicha daromadlilik qimmatli qog'ozlarning risklilik darajasiga umuman muvofiq kelmaydi. Jumladan, «O'zsanoatqurilishbank» ATB korporativ obligatsiyalari tahlili ko'rsatdiki, foizli daromad avvalo har chorak bo'yicha to'lanadi. Daromad miqdori oxirgi uchta emissiya bo'yicha qayta moliyalashtirish stavkasi asosida +2, +3, +4 foiz. Oddiy aksiyalar bo'yicha esa oxirgi ikki yil yakuni bo'yicha dividend to'lanmagan.

Tijorat banklari korporativ obligatsiyalari bo'yicha foizli daromadlar investorlarga har chorakda to'lab boriladi. Depozit va omonatlar bo'yicha esa foizlar har oyda amalga oshiriladi. Aynan shunday sharoitda dividendlarning o'ta noaniqligi va bir yilda bir marta to'lanishi o'z-

o'zidan yuqori riskni namoyon qiladi. Mazkur jihatlar tijorat banklarini xususiylashtirish, ular aksiyalarining investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida dividenddan daromadlarni yaxshilashga e'tibor qaratish kerak.

Tijorat banklarining faolligi zarur bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozorining yana bir segmenti bu obligatsiyalar bozoridir. Konversiya imkoniyati bilan korporativ obligatsiyalar joylashtirish, kredit liniyalari ochilishi orqali kapital bozorida mablag' jalb qilish ham bugungi kunga alohida dolzarblik kasb etadi. Bunda joylashtirilgan korporativ obligatsiyalar va jalb qilingan kredit liniyalari mablag'larni qaytarish vaqti kelganda oddiy aksiyalarga konversiyalanishi tartibi asosida kapital jalb qilish lozim bo'ladi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida berilgan taklif natijasida «O'zsanoatqurilishbank» ATB tomonidan qo'shimcha chiqariladigan oddiy aksiyalariga konvertatsiya qilish imkoniyati bilan kredit liniyalari ochilishi to'g'risida bitimlar amalga oshirilmoqda (1-jadval).

1-jadval

O'zsanoatqurilishbankning qo'shimcha chiqariladigan oddiy aksiyalariga a konvertatsiya qilish imkoniyati bilan kredit liniyalari ochilishi to'g'risida bitimlar, AQSH dollarida

No	Xalqaro moliya institutlari	Qarz hajmi (mln.AQSH dollarida)
1	Xalqaro moliya korporatsiyasi	75
2	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	50
3	Osiyo taraqqiyot banki	50

Bunda jami 175 mln. AQSH dollari ekvivalentigacha hajmda har bir xalqaro moliya institutining istagiga ko'ra to'liq yoki ma'lum bir qismini «O'zsanoatqurilishbank» ATBning qo'shimcha emissiya qilinadigan oddiy aksiyalariga konvertatsiya qilish imkoniyatini taqdim etish orqali kredit liniyalari ochilishi bo'yicha bitimlar amalga oshiriladi. Natijada esa «O'zsanoatqurilishbank» ATB ustav kapitaliga xorijiy aksiyadorlar kirib kelishi natijasida davlat ulushi pasayishini kutish mumkin bo'ladi. Mazkur bitim bo'yicha O'zbekiston Respublikasi moliya vaziriga Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki bilan muzokaralar olib borish bo'yicha vakolat berilgan. Mazkur jihat bankning asosiy aksiyadorlari Moliya vazirligi va uning operativ boshqaruvidagi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ekanligi bilan izohlanadi. Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki konvertatsiyalanuvchi kredit bitimlari amal qilish davri davomida O'zsanoatqurilishbank ustav kapitalidagi davlat ulushi kamida 50 foiz plyus bir dona aksiya miqdorida saqlash tartibi amal qiladi. Kredit liniyasi oddiy aksiyalarga konvertatsiya qilingach, xususiylashtirish amaliyotlari jadallashtiriladi.

O'zsanoatqurilishbankda ochilgan kredit liniyasi bo'yicha Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki oldidagi qarzdorlik yoki uning bir qismini O'zsanoatqurilishbank qo'shimcha emissiya qilingan oddiy aksiyalariga konvertatsiya qilish bo'yicha opsiya chiqarish muhim, deb hisolaymiz. Bunda opsiya bitimi Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va Moliya vazirligi hamda Tiklanish taraqqiyot jamg'armasi o'rtasida aksiyadorlik bitimlari tuzilishi maqsadga muvofiq. Shuni ham qayd etish lozimki, xususiylashtirish bilan bog'liq, aksiyalar muomalasi bilan bog'liq holatda istiqbolda konvertatsiyalanuvchi aksiyalarni yoki ularning bir qismini xalqaro moliya institutlari xohishiga ko'ra Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi qayta sotib olish bo'yicha ham oldindan bitim imzolab qo'yilishi bitimning amalga oshuvchanligini ta'minlaydi.

Bunda eng birinchi e'tibor qaratiladigan jihat shubhasiz, xorijiy kapital jalb qilish bo'yicha kapital bahosi masalasidir. O'zsanoatqurilishbank amaliyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 300

mln. dollarlik yevroobligatsiya joylashtirish maqsadida moliyaviy konsultantlar sifatida JP Morgan, Citigroup, Commerzbank, Raiffeisen Bank kabi yirik banklar xizmatlaridan foydalanilgan. Lekin ular xizmatlari uchun qilingan xarajatlar haqida ma'lumot mavjud emas. Xohlaymizmi-yo'qmi mazkur xarajat ham bevosita kapital bahosida hisobga olinishi shart. Ikkinchidan, potensial investorlar bilan uchrashuvlarni tashkil etish xarajatlari (konferens-zal, alohida esdaliklar uchun va boshqa xarajatlar) ham oshkor qilinishi maqsadga muvofiq.

Xalqaro moliya bozorida korporativ yevroobligatsiyalarning yillik 5,75 foizlik kupon stavkada joylashtirilishi nisbatan yuqori stavka hisoblanishi bunday fikrga kelishimizga sabab bo'lmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan qator xarajatlar o'z navbatida «O'zsanoatqurilishbank» ATBning yevroobligatsiya orqali jalb qilgan kapital bahosining yanada oshishiga olib keladi. 2019 yil boshida O'zbekistonning ilk suveren yevroobligatsiyalaridan 500 mln. AQSH dollarilik qismi 4,75 foizdan joylashtirilgan bo'lsa, «O'zsanoatqurilishbank» ATB yevroobligatsiyalari 5 yillik muddatga yillik 5,75 foiz stavkada joylashtirildi.

2020 yil birinchi va ikkinchi choraklari davomida «O'zsanoatqurilishbank» ATB tomonidan yillik 4 foiz stavkada «Kapital» nomli AQSH dollaridagi omonat taklif qilinmoqda. Boshqa tijorat banklarida ham xorijiy valyutadagi omonatlar foizlar bo'yicha omonatlar shunga yaqin. O'z-o'zidan savol tug'iladi: yillik 5,75 foizlik kupon stavkada joylashtirilgan yevroobligatsiya kapital bahosi yuqorimi yoki AQSH dollaridagi 4 foizlik milliy omonat bo'yicha kapital bahosi yuqori. Bunda tabiiyki, AQSH dollaridagi 4 foizlik milliy omonat bo'yicha kapital bahosi keskin past. Yevroobligatsiya muomalaga chiqarish orqali jalb qilingan kapital miqdori yuqori ekanligini alohida qayd etgan holda, joriy sharoitda AQSH dollaridagi omonatlar foiz stavkasini yevroobligatsiyalar foiz stavkasiga yaqinlashtirish nisbatan samarali hisoblanadi. Shu o'rinda milliy valyutadagi korporativ obligatsiyalar foiz stavkalari va milliy valyutadagi omonatlar foizlari bir-biriga yaqin ekanligini ham ta'kidlashimiz lozim.

Yuqori inflyatsiya sharoitida xorijiy kapital bozoridan, umuman kapital bozoridan xorijiy valyutada olinadigan qarz kapitali valyuta riskini oshirishini ham shu o'rinda alohida qayd etib o'tishimiz lozim. Bunda xorijiy valyutada depozit jalb qilingan, xalqaro obligatsiya hisobiga kapital jalb qilingan holatda ham tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada kredit real sektorgan taqdim etilsada, korxonalarining daromadi milliy valyutada bo'ladigan bo'lsa, amaliyot yanada murakkablashishi mumkin. Shu nuqtai nazardan avvalo korporativ obligatsiyalar milliy bozorini rivojlantirish va obligatsiyalar jozibadorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tamizki, tijorat banklarning tijorat banklarining fond bozoridagi faolligini oshirish va qimmatli qog'ozlari jozibadorligini oshirish borasida ularning fond bozorida professional ishtiroki nihoyatba muhim hisoblanadi, sababi, banklar emission faoliyat orqali o'zlari uchun resurs jalb qilishda qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lsa, investitsion faoliyati orqali o'z aktivlarni joylashtirishda ularni diversifikatsiya qilishga erishadi hamda bank aktivlarini yo'qotish riskini pasaytiradi. Tijorat banklarning fond bozoridagi vositachilik faoliyati banklar uchun yangi imkoniyalar va daromadlar manbaini oshirishga xizmat qiladi.

Banklarning fond bozoridagi ishtiroki iqtisodiy rivojlanishning muhim omili – rivojlangan mamlakatlarda banklar fond bozorining asosiy ishtirokchilari sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. O'zbekistonda esa tijorat banklari fond bozorida hali yetarlicha faollik ko'rsatmayapti. Raqamli texnologiyalar bank sektorining fond bozoriga integratsiyasini tezlashtirmoqda – blokcheyn, big data, sun'iy intellekt va boshqa raqamli texnologiyalar bank operatsiyalarining shaffofligini oshirish va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Tijorat banklarining investitsion imkoniyatlarini kengaytirish zarur – banklar tomonidan fond bozori vositalaridan foydalanish darajasi past bo'lib, aksiyalar va obligatsiyalar orqali kapital jalb qilish hali yetarli darajada rivojlanmagan. **Xalqaro tajribaga ko'ra, fond**

bozori va bank sektori o'zaro bog'liq rivojlanadi – rivojlangan mamlakatlarda fond bozori orqali bank kapitalining ko'payishi moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda esa bu jarayon sust kechmoqda. **Regulyatorlar tomonidan fond bozorini rivojlantirish bo'yicha qo'llab-quvvatlash zarur** – davlat tomonidan banklarning fond bozoriga kirishini rag'batlantirish va huquqiy bazani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklarning fond bozorida ishtirokini kengaytirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Tijorat banklarining fond bozori orqali kapital jalb qilishini rag'batlantirish uchun qonunchilik bazasini kuchaytirish.

➤ Banklarning IPO (Initial Public Offering) orqali ochiq bozorda aksiyalarini sotishiga imkon yaratish.

Banklarning raqamli texnologiyalar asosida fond bozoriga integratsiyasini tezlashtirish.

➤ Fintex kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytirish va raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish.

➤ Blokcheyn va smart-kontraktlar orqali tranzaksiyalarni avtomatlashtirish va xavfsizlikni oshirish.

Tijorat banklari uchun investitsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha mexanizmlar yaratish.

➤ Banklarning obligatsiyalar chiqarishini rag'batlantirish va likvidlikni oshirish.

➤ Fond bozori orqali uzoq muddatli moliyalashtirishni kengaytirish.

➤ Xalqaro tajribani o'rganish va fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish.

➤ Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

➤ Chet el investorlarini jalb qilish uchun fond bozorining shaffofligini oshirish.

Bank mutaxassislari va investorlar uchun maxsus trening va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish

➤ Fond bozori va investitsiyalar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish.

➤ Tijorat banklari xodimlari va tadbirkorlar uchun fond bozori bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish.

O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish va banklarning ushbu bozordagi ishtirokini oshirish uchun tizimli yondashuv zarur. Bank sektorining fond bozori bilan integratsiyalashuvi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, tijorat banklari uchun qulay investitsion muhit yaratish, regulyativ bazani kuchaytirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

Allen, F., & Gale, D. (2000). *Comparing Financial Systems*. MIT Press.

Diamond, D. W., & Dybvig, P. H. (1983). *Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity*. *Journal of Political Economy*, 91(3), 401–419.

Fama, E. F. (1970). *Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work*. *Journal of Finance*, 25(2), 383–417.

Kamilova, S. A. (2023). *Tijorat banklarining aksiyadorlik kapitali va investitsiya siyosati*. *Bank ishi va moliya jurnali*, 5(3), 78–89.

Karimov, Sh. (2021). *O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish strategiyalari*. Toshkent: *Iqtisodiyot nashriyoti*.

Levine, R. (2005). *Finance and Growth: Theory and Evidence*. *Handbook of Economic Growth*, Vol. 1A, Elsevier.

Lo, A. W. (2017). *Adaptive Markets: Financial Evolution at the Speed of Thought*. Princeton University Press.

Mishkin, F. S. (2020). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson.

O'ktamova, N. N. (2023). O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining fond bozoriga ta'siri. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 4(2), 112–126.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki (2023). O'zbekiston fond bozori holati va rivojlanish tendensiyalari. Rasmiy hisobot.

Qodirov, A. (2020). Bank ishi va investitsiya siyosati. Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti.

Tursunov, I. (2021). Raqamli texnologiyalar va bank sektori. O'zbekiston moliya bozorlarini rivojlantirish instituti.

Usmonov, B. (2022). Raqamli bank tizimi va uning rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot fanlari instituti.

Yermack, D. (2018). Corporate Governance and Blockchain Technology. Review of Finance, 22(5), 1593–1626.

Yunus, M. (2006). Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty. PublicAffairs.